

INGLIZ TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY USULLAR VA METODLAR

Turdaliyeva Shaxnoza Komiljon qizi

*Farg‘ona viloyati, Buvayda tumani 11- umumiy o‘rta ta’lim maktabi ingliz tili fani
o‘qituvchisi.*

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili darslarida zamonaviy usullar va metodlarni qo‘llash haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, metod, usul, vosita, o‘quv materiali.

O‘qituvchining o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishdagi o‘rgatuvchi faoliyati jarayonida nutq, faoliyatining barcha turlari buyicha ko‘nikma va malakalar shakllantirishga yo‘naltirigan turli tuman metodlar, usullar, vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. SHunday ekan, o‘rgatish va o‘rganish metodlari, usullari va vositalari, tushunchalari haqida batafsilroq, to‘xtalishimizga to‘g‘ri keladi. CHet tillar o‘rgatishning rivojlanish bosqichlarida turli metodlar qullanilgan. Jumladan, quyidagi o‘rgatish metodlari haqida fikrlar bildirilganligini ko‘ramiz: 1. Grammatik-tarjima metodi; 2. Leksik-tarjima metodi; 3. To‘g‘ri metod; 4. Pal’mor metodi; 4. Uest metodi; 5. Audio-lingval metod; 6. Proektlab o‘qitish metodi va x, k. Bu metodlarning vujudga kelishiga, shubhasiz, pedagogika, psixologiya, shaxs psixologiyasi, lingvistika, psixolingvistika fanlarining rivojlanishi va ta’siri katta bo‘ladi. O‘rgatish metodlariing bunday turli-tuman tasniflanishida o‘rgatish metodlari, usullari, tamoyillari o‘zaro aralashtirilib yuborilgan. Tushuntirish metodi. Tushuntirish metodi ta’lim jarayonida eng keng qo‘llaniladigan metodlardan biri xisoblanib, o‘quvchi o‘quv dasturida belgilangan fonetik, leksik, grammatik materialni og‘zaki usulda o‘quvchilarga takdim qiladi. O‘qituvchi xilma-xil ko‘rgazmali qurollardan, ta’limning texnika vositalaridan foydalangan holda o‘quv materialining mazmunini bayon qiladi, bu orqali

o‘quvchilarda dastlabki fonetik, leksik, grammatik ko‘nikmalarni shakllantiradi va bu ko‘nikmalarni amalda qo‘llash yullarini ko‘rsatadi. Bu metod o‘quv materialini mantiqiy izchillikda bayon qilish, turli ma’lumotlardan foydalanish, fanlararo bog‘liklikni ta’minlash, o‘zbek va fransuz tillarini qiyoslab tushuntirish imkoniyatini beradi. Bu metodning samarador bo‘lishligi o‘qituvchining metodik maxoratiga, ya’ni o‘quv materialini qiziqarli bayon qila olishiga, nutqining jozibadorligiga va o‘ziga jalb qila olishligiga, ifoda usulining kundaligiga, mantikiyligiga va obrazliliga bog‘liq, Tushuntirish metodi o‘qituvchidan o‘quvchilarning doimiy raviшда barqaror diqqatlarini saqlab turishni, o‘quv materialiga nisbatan munosabat uyg‘ota olishni va shu jarayonda uni idrok qilish va tushunish, xotirada saqlash yullaridan, usullaridan foydalanishni talab qiladi. Bu juda ham murakkab jarayon bo‘lib, unda o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradigan, xotiralarini rivojlantiradigan usullardan foydalanish orqaligina erishish mumkin. Tushuntirish evristik suhbat, materialni muammoli bayon qilish, ona tili bilan taqqoslash orqali ham tashkil qilinishi mumkin. Tushuntirishga ajratiladigan vakt o‘quv materialining oson-qiyinligiga, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariiga, ta’lim bosqichiga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Ma’lumot olish tinglab tushunish va o‘qish orqali amalga oshsa, ma’lumot berish gapishtirish va fikrni yozma bayon qilish orqali amalga oshadi. Nutq faoliyati shakli 2 ta: og‘zaki va yozma nutq. Xozir ingliz tilini o‘rgatishda tarjima (qilish) ham faoliyat hisoblanadi.

Og‘zaki nutqni o‘rgatish – tinglab tushunish va gapishtirishni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Ular ajralmas qismlardir. Ularni bir – biridan ajratib o‘rgatish qiyin, xatto mumkin emas desak ham bo‘ladi. Og‘zaki nutqning nutq faoliyatimizda muhimliliği hammamizga ayon. Og‘zaki nutq, nutqni tinglab tushunish va gapishtirish shakllarida bo‘lishi mumkin. YOzma nutqni o‘rgatishga esa o‘qish va yozuvni o‘rgatish kiradi. Tinglab tushunish ham nutq faoliyatining turidir. U retseptiv nutq faoliyatiga kiradi. Tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar va talabalarda

tinglab tushunish gapishtiga qaraganda kam taraqqiy etgan. O‘quvchi o‘qiganda, ko‘rganda tinglab tushunishga qaraganda olti marta ko‘p ma’lumot olarkan, sababi uni ustida kam ishlaganidadir, murakkabligidir. Tinglab tushunish boshqa nutq faoliyatlariga ham yordam beradi. U gapishtini ajralmas qismidir. Tinglab tushunish bilan gapishtish ikkalasi og‘zaki nutqni tashkil qiladi. U gapishtini bir qismidir. Tajribalar ko‘rsatadiki, tinglab tushunishni rivojlanganiga qarab, gapishtish ham rivojlanadi, o‘quvchi, ayniqsa, dialogda yaxshi qatnasha oladi.

Masalan: Ingliz tilidagi unli tovushning kisqa chuziqligi, so‘z ohiridagi undosh tovushning jarangli-jarangsizlashuvida yuksak taqrifiylikka intilish zarurdir, aks xolda mazmunga putur etadi.

Tinglab tushunishning eng asosiy maqsadi, vazifasi, tanish til materillari asosida tuzilgan notanish mazmunli matnni, nutqni tinglab tushunishdir. CHet tili o‘rgatishning muham metodlaridan biri ko‘zatish metodi bo‘lib, u o‘quvchilarda tildagi fonetik, leksik, grammatik xodisalar haqida ongli tasavvur va malakalar xosil qilishni, ularni amalda kullay olishni ko‘zda tutadi. Ko‘zatish o‘quvchilar tomonidan yangi mavzu tushuntirilayotganda, sinfda, uyda, mustaqil ishlarni bajarayotganida amalga oshiriladi. Kuzatish o‘quvchidan faol faoliyat talab qiladi. O‘quvchilar til materiali tushuntirilayottanida yoki mustaqil ishlayotganlarida uni taxlil kilishlari, mantiqiy xulosalarga kelishlari, fikrlashlari, ona tili bilan qiyoslashlari lozim. Malakalarni amaliyotda qo‘llash vazifasi an’anaviy chet tili o‘qitish metodikasida didaktik uyinlar uynatish (bosholang‘ich sinflarda), turli mavzularda erkin suhbatlar uyushtirish, sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, internatsional do‘stlik klublari ishida ishtirot etish, xorijiy mexmonlar bilan uchrashuvlar tashkil krish, xorijiy o‘quvchilar bilan xat yozishuvlar tashkil qilish kabi shakllarda uyuştililadi. Keyingi yillarda ilgari surilgan muammoli o‘qitish, proekt tuzish orqali nutq, vaziyatlari yaratish, kompyuter va internet ma’lumotlaridan foydalanish kabi ish usullari o‘quvchilarga tabiiy yaratilgan nutq, vaziyatlari orqali chet tili o‘rgatishga keng imkoniyatlar ochmokda.

ADABIYOTLAR:

1. Siddiqova I.A. Metodika prepodovaniya angliyskogo yazyka. T. 2002 .
2. Расулов В.К. инглиз тилини ўргатиши методикаси. Т. 1998.
3. Кахарова, Н. Н. (2022). Морфонологические Явления В Отлагольных Словообразовательных Цепочках Современного Русского Языка. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 141-150.